$$c_0 = \sqrt{\frac{2 \cdot 1,5 \cdot 1,2 \cdot (100) \cdot 10 \cdot 83,17^2}{1147}} = 147 \text{ cm} > 2h_0 = 2 \cdot 83,17 = 166,34 \text{ cm}$$

$$Q_{sw} = q_{sw} \cdot c_0 = 1147 \cdot 147 = 168,6 \cdot 10^3 \text{ H} = 168,6 \text{ kH}$$

$$c = c_0 = 147 \text{ cm} \quad \text{qabul qilamiz}$$

$$Q_b = \varphi_{b2}(1 + \varphi_f + \varphi_n) R_{bt} b h_0^2 / c = 2 \cdot 1,5 \cdot 1,2 \cdot (100) \cdot 10 \cdot 83,17^2 / 147 = 169402 \text{ H} = 169,4 \text{ kH}$$

$$Q_{b,sw} = Q_b + Q_{sw} = 169,4 + 168,6 = 338 \text{ kH} > Q = 142 \text{ kH} \quad x = \frac{1}{8} \cdot l_0 \text{ masofada}$$

qiya kesim mustahkamligi ta'minlandi.

Binoni loyixalash bo'yicha umumiy xulosalar

Binokor kasbi-bizning mamlakatimizda eng ko'p tarqalgan kasblardandir. Har yili bir necha minglab yoshlar juda katta bo'lgan binokorlar safiga qo'shilmog'di.

Har bir me'mor va binokor tez pishiq arzon va ko'rkam bino loyixalashga va qurishga intilishi kerak, buning uchun esa o'z kasbini yaxshi egallashi lozim.

Men bajargan bitiruv malakaviy ishda topshiriqda berilgan binoni loyixalashda barcha faktorlar xisobga olindi. Bu bilan qabul qilingan texnik qarorlar isrofgarchilikka yo'l ko'ymaslik, ikkinchi tomondan esa binoning bir qismi buzilishi yoki butunlay ishdan chiqishi okibatida uning kolgan kislmlari xam muddatdan avval yaroqsiz bulib kolmasligi uchun barcha elementlarni kapitalligi bir xil bo'lishi uchun quyidagi tadbirlar qilindi:

1. Balodorning devorga tayanish uzunligi 350 mm ni tashkil qilishi kerak.
2. Agar proemning eni 1,5 metrdan kichik bo'lsa, sarbastaning tayanish qismini 250 mm olish mumkin.
3. Temirbeton o'zaklar poydevor va seysmik belbog'ga bog'lanib ketishi kerak, aks xolda fazoviy birlilik ta'minlanmaydi.
4. Devorli uy burchaklarini xar 5-7 qatorida armaturalash kerak (armatura sifatida simli to'r, yoki qamish turi ishlatilishi mumkin).
5. Devor birligi yetarli bo'lmasa temirbeton o'zaklar bilan va bilan kuchaytirilgan, yoki qurilgan uylarni mustahkamligi 8 balli zilzila darajasiga javob beradi va x.k.






















Loyixalarda konstruktsiyalarning bino konstruktsiyalarini uzoqqa chidamliligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar ko'zda tutildi bular: sovuqbardosh va o'tga chidamli, korroziyabardosh materiallarni tanlandi, ularni chirishdan himoya qilishga doir choralar ko'rildi.

Binoning maqsadiga qarab uning arxitekturaviy reja, konstruktiv sxemalari tanlandi va bino xonalarini loyixalaganda tabiiy iqlim sharoitlar ham hisobga olindi. Binoning qurilish konstruktsiyalari ularga qo'yiladigan ekspluatatsion, texnik, iqtisodiy, estetik va boshqa talablarni hisobga olgan xolda loyixalandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Uzbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari T.:Uzbekiston-2009
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Uzbekiston 1998y
3. Askarov B.A., Nizomov Sh.R. Temirbeton va tosh-g'isht konstruksiyalari. T: O'zbekiston, 2003 , -432b.
4. Bondarenko V.I., Nuriddinov X.N., Xaydarov D.M. Zilzila bo'ladigan rayonlarda yuk ko'taruvchi devorlari g'isht yoki toshdan terilgan binolarni loyixalash. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi, -1992, -49 b.
5. Мандриков А.П. Примеры расчета железобетонных конструкций. М. 1989
6. Змеул С.Г. «Типология зданий» Москва Стройздат 2005 г.,
7. «Jamoat binolari tipologiyasi» 2 – qism Toshkent 2000 g., prof.Ubaydullaev X.M., dots. Abduraxmonov Y.I., Setmamatov M.B.
8. КМК 2.08.02-96 Общественные здания и сооружения
9. QMQ 2.03.01.-97. Beton va temirbeton konstruksiyalari.
- 10.QMQ 2.01.03. -96. Seysmik xududlarda loyixalash
- 11.QMQ 2.01.07-97. Yuklar va ta'sirlar. T., 1997.
- 12.КМК 2.07.01-03 Градостроительство. Планирование застройки территорий городских и сельских населенных пунктах.
- 13.QMQ 3.04.02-97. Bino va inshootlarni korroziyadan saqlash. T., 1997
- 14.V.A. Nelov. Qurilish-montaj ishlari. T.: O'zbekiston, 1989-256 b.
- 15.N Samigov, M.S.Samigova "Qurilish materiallari" 2004 y, Toshkent sh. Kasb-xunar kollejlari uchun darslik
- 16.SHNK 4.02.00-04. Kurilish ishlariga elementli resurs smeta normalarini ishlab chiqish va tadbiq etish bo'yicha umumiy normalar.UzR Davarxitekqurilish, AKATM, Toshkent. 2004 y.
- 17.Методические рекомендации определению расчетных текущих цен на эксплуатацию строительных машин и механизмов. НИИЭОС и НТ, Госкомархитекстрой, Тошкент – 2004 г.

- 18.Методические рекомендации по составлению ресурсной сметной документации на строительные и монтажные работы. Госкомархитекстрой, Тошкент – 2004 г.
- 19.Сборник ресурсных норм (РСН) на монтаж оборудования и специальные строительные работы. Госкомархитекстрой, Тошкент – 2004 г.
QurQiyimatAsos-2005 dastur majmuasi
20. ШНК 2 08.02.07. "Общественные здания и сооружения " Тошкент -2006 й.
- 21.Popov L.N. "Qurilish materialari".-M.;"Oliy maktab" 1989.
- 22.Dudarov I.G.Matveev G.M. Suxanov V.B."Silikatlarning umumiy texnologiyasi".-M.: "Oliy maktab" 1988.



Year	Age	Sex	Number	Mean	Standard Error	Standard Deviation	Minimum	Maximum
1961	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1962	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1963	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1964	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1965	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1966	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1967	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1968	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1969	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1970	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1971	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1972	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1973	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1974	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1975	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1976	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1977	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1978	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1979	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1980	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1981	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1982	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1983	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1984	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1985	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1986	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1987	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1988	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1989	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1990	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1991	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1992	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1993	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1994	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1995	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1996	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1997	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1998	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
1999	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2000	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2001	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2002	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2003	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2004	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2005	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2006	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2007	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2008	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2009	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2010	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2011	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2012	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2013	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2014	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0
2015	1	♂	1	1.0	0.0	0.0	1.0	1.0

Mehnat va atrof muhit muhofazasi qismi

Bitiruvchi:



Soloyeva N.

Maslaxatchi:

Quryazov Q.

Ma'sul raxbar:



Atajanov Sh.

TOPSHIRIQ

Bitiruv malaka ishi mavzusi: Urganch shahrida 200 o'ringa mo'ljallangan o'quv markazi binosini loyihalash bo'yicha topshiriq diplom ishida loyihalanayotgan ob'yektning joylashgan o'rniga, talabalarga qulaylikalar yaratish maqsadida loyihalandi.

Diplom ishining mexnatni muxofaza qilish bo'limini bajarishda quyidagilarga e'tibor qaratish muximdir:

Mexnatni muxofaza qilish bo'yicha texnik yechimlar loyiha xujjatlarida to'g'ri xal qilinishiga va loyihada sanitar – maishiy xonalar, yong'in xavfsizligi qurilmalari to'g'ri qabul qilingan va ishlab chiqarish jarayonida mexnatni muxofaza qilishning quyidagi qoidalariga riya qilish lozimdir:

1. mexnatni muxofaza qilishning qonuniy asoslari, xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini tashkil qilish, mexnat sharoitini yaratishga;
2. ishlab – chiqarish sanitariyasi va gigienasi qoidalariga;
3. xavfsizlik texnikasining barcha masalalariga;
4. Ishlab – chiqarishda yong'inga qarshi kurash chora tadbirlariga keng e'tibor qaratish lozimdir.

KIRISH

Bitiruv malaka ishi mavzusi: "Urganch shahrida 200 o'ringa mo'ljallangan o'quv markazi binosini loyihalash" jarayonida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalarni yechib qolmay, ushbu ob'yekt qurilayotgan joydagi axoli maskanini ekologik muvozanatiga xam e'tibor berish zarur.

Bino ichida yonginga qarshi shitlar mavjud bo'lishi kerak. Har bir qavatta evaquatsiya rejasi xonalardan chiqish xarakatlanish chizmasi xam bo'lishi kerak Bundan tashqari PG yong'in qrani xar bir qavatta qavat uzunligiga qarab o'rnatilgan ularning ishlashi xamisha soz turishiga bino mamuriyati javobgar bo'ladi.

Bino ichidagi axoli xafsizligiga katta etibor qaratish lozim. Yong'in qranlari asosan davlat tasaruffidagi binolarga o'rnatiladi.

Biz loyixalanayotgan bino qavatlari xam zamon talablariga javob beradigan darajada yong'inga qarshi jixozlar bilan jixozlangan. O't ochirish qranlari suv qranlari yong'in chiqqanda xabar beradigan moslamalar xar bir qavatning xar bir xonasida bor.

Bugungi kunga kelib yurtimiz xududida bunday binolar yong'in xafsizligiga qoidalariga to'la qonli javobberadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasida mexnatni muxofaza qilishning xuquqiy, texnik va sanitariya – gigiena qoidalari bilan belgilab qo'yilgan qonunlari qabul qilingan. Bu qoidalar umumjaxon talablari darajasida ishlab chiqilgan.

MEHNAT XAVSIZLIGI

Xalq xo'jaligining turli sohalarida qurilish ishlari oldindan tuzilgan va yuqori idoralar tasdiqlagan ma'lum tartib qoidalar asosida olib boriladi.

Bu qoidalar qurilish asbob uskunalaridan foydalanish yo'llari va ularni saqlash choralari, hamda qurilish ishlarini bajaruvchilarni sog'ligini saqlashga doir tadbirlar ko'rsatiladiki, bular *mehnat xavsizligi* deyiladi.

Xavsizlik mexanikasiga doir qoidalarni buzilishi kutulmagan xunuk xodisalarga olib keladi, masalan ishlovchilarning yara chaqaga chalinishi, kasallanishi, asbobning shikastlanishi mumkin. SHunga ko'ra ish boshlashdan oldin qurilish ishlarini boshqaruvchi tashkilot raxbari shu ob'ektdagi ishni mohiyati, joy sharoiti, ishlash tartibi va qoidasi haqida suhbat o'tkazishi lozim.

Qurilish ishlarini bajarishda ish beruvchini transport xavfidan saqlangan bo'lishini ta'minlash kerak. Ish joyida tasodifiy xodisaning oldini olish uchun joyiga qarab turli masofada nazoratchilar bo'lishi lozim. Bino qurish joylarida asbob va ishchilarni ko'tarish krani havoda havfdan xoli joylarda ishlash imkoniyatini yaratish lozim.

YOz paytida asbob bilan ishlovchilar maxsus zont bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Bu asbob va ishlovchini issiq urishidan asraydi.

Qurilish ishlarini bajaradigan kishilar butunlay sog'lom bo'lishi lozim. Qurilishda montaj ishlarini bajarishda kranlar kurilmalarida ishlovchilar signal berishning qabul qilingan qoidalarini va undan foydalanishni ogohlantirish signallar ahamiyatini, ya'ni ularni xarakatidagi masofada imkon berishni bilib, tegishli xavsizlik choralarini ko'rishga amin bo'lishi kerak.

Ish davrida xar xil ko'ngilsiz voqealar bo'lmasligi uchun asbobni xavf tug'dirmaydigan joylarga o'rnatish zarur masalan asbobni temir yulidan 2 metr uzoqlikda joylashtirish lozim.

Asbobni omborxonadan olishdan oldin asbobni to'lik tushinadigan kishi kerakli qismlarni to'laligini tekshirib ko'rishi lozim.

Kameral ishlarni bajarishda xonadagi optimal normalari

Xonada ishlaydigan xar bitta ishchi mehnat xavfsizli qoidalariga to'liq rioya etishi lozim. Qurilish ishlarini bajarish kameral sharoitda mahsus xonalar ajratiladi. Ishchilarning soniga qarab xonalarning kattaligi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1001 gacha odam -24 m²

1-jadval

1001 dan	3000 gacha odam	-48 m ²
3001 dan	5000 gacha odam	-72 m ²
5001 dan	10000 gacha odam	-100 m ²
10001 dan	20000 gacha odam	-150 m ²
	20000 odamdan ko'p	-200 m ²

Sovuq va issiq sharoitda xonalarda xarorat nisbiy namlik va xavo xarakati tezliklari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan

2-jadval

Xonalar xili	Ish kategoriyasi	Xarorat *S	Nisbiy namlik %	Xavo tezligi m/sek	Ishlamaydigan joylardagi chekli xarorat
1 sovuq sharoitdagi xonada	Engil	20-22	60-30	0,2	15-22
	O'rtacha	17-19	60-30	0,3	13-20
	Og'ir	16-18	60-30	0,3	12-18
2 issiq sharoitdagi xonada	Engil	20-25	60-30	0,2-0,5	Issiq sharoitdagi xaroratdan 3 *S ortiq
	O'rtacha	20-23	60-30	0,2-0,5	
	Og'ir	18-21	60-30	0,2-0,5	

Bundan tashqari issiq kunlarda xonalarni shamollatish masalasi ham bajarilishi kerak.

SHamol yo'li orqali o'tadigan havo hajmi quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$V=3600 \quad F \cdot V \quad (m^3/4)$$

bu erda:

F -shamol yo'li kundalang qirgimi yuzasi;

V-shamol yo'lidan o'tayotgan xavo tezligi;

Hozirda zamonaviy konditsionerlar qo'llanilishi ish honalarni salqin qva havosi tozaligini oshirmokda. Bundan tashqari ish stollarida yorug'lik normada bo'lishi lozim. Ish stoliga o'rnatilgan yoritgich havfsiz shu bilan birgalikda yorug'ligi ko'zga tushmasligi lozim.

Elektr toki xavfsizligi

Odamni tok urushi darajasi tok kuchiga va quvvatiga uni ta'sir vaqtiga tananing qarshiligiga va ta'sir joyiga bog'lik. Tok o'rganda klinik o'lim bo'lishi ham mumkin, ammo 5-7 minutni ichida yurak faoliyati ishga tushirilsa odamni tirik saqlab qolish mumkin. Bu sun'iy havo berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Elektr toki urganda 6 xil ta'sir qilishi mumkin:

1. Issiq – tana kuyadi.

2. Mexanik – muskul lat eri yoriladi va suyak sinadi.
3. Nurli- ko'z nuri kasal bo'ladi.
4. Ximik- kon elektroliz xodisasi bo'lishi mumkin.
5. Biolik- nerv sistemasi parolig bo'ladi.
6. Umumiy kompleks ta'siri.

Tok urganda birinchi tibbiy yordam quyidagicha beriladi.

Tokdan halokatga uchragan odam ajratib olinadi va sun'iy havo beriladi so'ngra nashatir spirt hidlatiladi va yuziga suv sepiladi, tanasi massaj qilinib qon aylanishi o'z holiga olib kelinadi.

Tovush va vibratsiyadan saklanish normalari

Odam 20-20000 GS tovush chastotasini qabul qiladi. 20-GS dan kichik tovushlar infro tovush 20000 GS dan ziyod tovushlar ultra tovushlar deyiladi.

Qurilish korxonalarda tovush normasi kuyidagicha bulishi kerak

Kameral xonalarda	-38-71DB
Labarotoriyalarda	-70-94DB
Ishlab chiqarish korxonalari	-80-103DB

Tovush chastotasi bo'yicha 3 ga bo'linadi:

- o'rta chastotali.
- kichik chastotali.
- yuqori chastotali.

Tovushni pasaytirish uchun mashina va mexanizimlarga rezina probka karton kabi materiallar qo'yiladi.

YOng'inga qarshi tadbirlar

Qurilish jarrayonida topografik geodezik ekspedetsiyalar ishlashi kerak bo'lgan o'rmon xo'jaligiga avvaldan xabar beriladi. Ularni turar o'rni va mashruti ham habar qilinadi.

Gulxanlarni palatka yaqinida yoqish mumkin emas. Kiyimlarni ham gulxan yoniga qo'yish mumkin emas. Gulxan atrofida o'lchash ishlari olib borilishi umuman mumkin emas.

Dala ishlarini bajarishda gugurt va sham bilan extiyot bo'lib foydalanishga o'rgatiladi.

Xonalarda gaz plitalari elektr asboblari elektr jixozlari elektr chiroqlari rezetkalar va boshqalar yong'inga qarshi tadbirlar asosida o'rnatilishi kerak.

YOng'in havfsizligi, korxonada yong'in chiqqan taqdirda ham uning havfi ta'sirini kamaytirish va moddiy boyliklarni asrab qolish tadbirlaridir.

Buning ilmiy zamini esa quyidagilardan iboratdir:

Qurilishda va ishlab chiqarishda shikastlanish, kasalliklar, ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan yong'in hamda portlashlar sabablarini har tomonlama taxlil qilish;

-ishlab chiqarishda qo'llaniladigan hamda ashyolarning havflilik va zararlilik darajasini o'rganish;

-to'qimachilik, paxta, ipak va engil sanoatida qabul qilingan yoki joriy etishga tavsiya etiladigan, og'ir hamda sermehnat ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ko'zda tutuvchi texnologik jarayonlarni baxolash.

Xayotiy faoliyat xavfsizligi

Hayotiy faoliyat havfsizligi - bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati - mehnat jarayonida, dam olishda, uyda hamda sportdagi faoliyatini tashkil qiladi.

Unda mehnat muhofazasiga qisqacha kirish, mehnat qonunchiligi, mehnat gigienasi va sanoat sanitariyasi, sexlarni yoritish, shovqin va titrash, elektr xavfsizligi, og'ir qo'l mehnatini mexanizatsiyalash, korxona xududini obodonlashtirish, yong'in xavfsizligini ta'minlash va boshqa dolzarb muammolar o'rganiladi.

Mehnat muhofazasi insonni ishlab chiqarishdagi ahvoli bilan, fuqarolar (grajdan) himoyasi va favqulotdagi ahvoli bilan qiziqadi. Hayotiy faoliyat xavfsizligi - bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati (mehnat jarayonida, dam olishda, uyda xamda sportda) uning faoliyatini tashkil qiladi.

Hayotiy faoliyat havfsizligi - qonunga muvofiq, prinsip va usullar asosida: baxtsiz xodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo'yadigan va hal qiladigan. HFH - bu har qanday ko'rinishda faoliyatga qo'llanishi mumkin bo'lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

Mehnat qonunchiligi, barcha ishchi va xizmatchilarning mehnat munosabatlarini boshqarib turuvchi xuquqiy normalari majmuasidir. Mehnat

gigienasi va sanoat sanitariyasi, ishchilarni kasbiy kasalliklarga, zararlanish va zaxarlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan zararli ta'sirlarni kamaytirish yoki butunlay yo'q qilishga qaratilgan tashkiliy tadbirlar va texnika vositalardir.

Uskuna va dastgohlarning xavfsizlik texnikasi, ishchilarni jaroxatlanishdan, avariya, yong'in va portlash xavfidan asrab qolish va ularni kamaytirishga qaratilgan tashkiliy tadbirlar va texnik vositalar majmuasidir.

YUK ko'tarish va tashish uskunalarida ishlaganda texnikasi

havfsizlik

YUK ko'tarish va tashish uskunalarini ishlatishda xavfsizlik texnikasi qoidalari shu uskunalarni loyihalovchi tashkilot tomonidan yoki korxona bosh mexanigi tomonidan belgilab beriladi. Bu uskunalar tuzilishi oddiy va tezliklari yuqori bo'lmasa ham ishlovchilar ma'lum havf-xatar tug'diradilar. Ishchilarning qo'llari, sochlari va kiyimlari mashina qismlariga tortilib ketmasligi uchun maxsus aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Bu uskunalarda xavfsizlik texnikasining asosiy talabi barcha harakatga keltiruvchi qismlarini ishonchli qilib to'siqlar bilan ta'minlashdir. Ayniqsa, tishli g'ildiraklar, zanjirli va tasmali xarakat uzatkichlar, muftalar va boshqa harakatlanuvchi va aylanuvchi qismlar havflidir.

Konveerlarning barabanlarini, roliklarini va tasmalarini harakatlanib turganda tozalash, sirpanib tasma yurmay qolganda tasma va baraban tagiga biror material tashlab yurgizib yuborish ta'qiqlanadi.

Konveerning uzunligi 20 m dan kam bo'lganda uni to'xtatish tugmalari uning bosh va oyoq qismlariga, undan katta bo'lgan hollarda har 20 m da o'rnatiladi. Bu uskunada biror nosozlik sezilganda tezlik bilan to'xtatish imkonini beradi.

YUK ko'tarish – tashish uskunalarini ishlatayotganda ayniqsa, uning elektr qismlariga diqqatni qaratish kerak bo'ladi. Ularning elektr qismlari elektr uskunalarini tuzilish qoidalari talablariga mos bo'lishi kerak.

YUK tashish uskunalarini (zanjirli, tasmali konveerlarni) yurib turgan xolda moylash mumkin emas. Ularni sozlash vaqtida dvigateli albatta uchirilgan va yurgizish tugmasi ustiga «YUrgazmang – konveer sozlanayapti» degan yozuvli taxtacha osib quyilishi shart.

Konveerning xavfsiz ishlashini quyidagi moslamalari ta'minlaydi:

- xarakatga keltiruvchi va taranglashtiruvchi stansiyalarning to'siqlari (to'siqlarni shunday o'rnatish kerakki ular zanjir, tishli g'ildiraklar, shkiqlar va tasmalarga tegmasin);

- tezligi 0,2 m/s dan ortiq bo'lgan konveerlarning butun uzunligi bo'yicha to'siqlar bilan ta'minlash;

- konveerning qiya qismlarida ushlab qoluvchi ilgichlar bilan ta'minlash (konveer orqaga ketib qolmasligi uchun);
- tovushli signal beruvchi moslama (konveer yurgazilishidan 1-2 min oldin xabar berish uchun);
- «To'xtatish» tugmasining qizil rangda bo'lishi (ular bir-biridan har 20 m da ko'rinarli va qulay joylarga quriladi);
- konveerlar ustidan o'tiladigan yo'lak - ko'priklar yaxlit taglik va yonlari, balandligi 15 sm va taxtalar bilan qoqilgan xamda balandligi 1m bo'lgan ushlagich – dastaklar bilan ta'minlanadi. Bunday ko'priklar konveer uzun bo'lgan hollarda har 30-40 m da o'rnatiladi.

Qurilish uchun joy tanlash

Yangi korxona qurish uchun joy tanlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak: erining reliefi, suv ta'minoti va oqava suvlarni tashlab yuborish imkoniyati borligi.

Yangi qurilayotgan korxona uchun er uchastkasi ajratishda qurilish maydonining reliefi, gidrogeologik va geologik xarakteristikasi, seysmikligi hisobga olinadi. Er osti suvlari qaysi chuqurlikda o'tgani ham hisobga olinadi. Ularning satxi, eng chuqurda joylashgan injenerlik inshootlaridan ham pastda bo'lishi kerak. U er tekis, keskin qiyaliklardan xoli bo'lishi kerak.

Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi

Bitiruvchi:

Maslaxatchi:

Ma'sul raxbar:



Soloyeva N.



Ahmedov Q.



Atajanov Sh.

QURILISH MAYDONINING INJENER TAYYORGARLIGI

Qurilishni tashkiliy-texnologik tayyorlashning bosqichlari, maydon ichida va maydon tashkarisida bajariladigan tayyorgarlik ishlari, reja-iqtisodiy tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda qurilish ishlab-chiqarish texnologiyalarining, uni tashkil etish va boshqarishning takomillashib borishi, qurilish ishlab chiqarishini oldindan sifatli tayyorlashni talab qiladi. Ma'lumki, sanoat binolari, inshootlar, turar-joy va madaniy-mayishiy binolar qurilishida xar-xil vazirlik, ma'muriyatlarga buysinadigan kurilish-montaj tashkilotlari ishtirok etadilar. Bu esa, uz vaqtida ularning bir-biri bilan bog'liqlikda ishlashlarini ta'minlovchi, tugal o'ylangan rejani talab qiladi. Shuning uchun SNiP 3.01.01-85 me'yoriy xujatiga asosan, yangi bino va inshootlarni qurish, mavjud binolarni kengaytirish, rekonstruksiya qilishni boshlashdan oldin tex-nik-tashkiliy tayyorgarlik ishlari bajariladi.

Ma'lumki, qurilish ishlab chiqarishini tashkiliy-texnologik tayyorlashning turt bosqichi mavjud:

- qurilish ishlab - chiqarishini umumiy tayyorlash;
- qurilish tashkilotlari ishini tayyorlash;
- ob'ektlarni qurish uchun tayyorlash;
- ishlab-chiqarish jaranlarini va brigadalar ishini tayyorlash.

Qurilish montaj va mutaxassislashgan tashkilotlarni jalb etish.

Bosh pudrat va yordamchi pudrat qurilish tashkilotlari «kapital qurilish pudrat shartnomalari qoidalar» me'yoriy xujjati asosida ishlaydilar. Shartnoma tuzishga qurilishi lozim bulgan ob'ektlarning tasdiklangan va davlat rejasiga kiritilgan titul ruyxati asos buladi. Pudrat sharnomasida qurilish ishlari xajmi, turi, narxi va boshqa shartlar ko'rsatiladi. Qurilishning bir yildan oshadigan muddatlarida pudrat bosh shartnomasi tuzilib, unga tayangan xolda yilik pudrat shartnomalari tuziladi.

Jixozlar va resurslar bilan ta'minlash

Bu shartni bajarishda konstruksiya, buyum, material va yarim fabrikatlar buyurtmalarini zavod va kombinatlar bo'yicha joylashtirish muximdir. Qurilish tashkilotlaridan buyutmani olgan zavod uz imkoniyatlarini kurib chikadi va zarur deb xisoblasa individual buyurtmalar uchun maxsus jixoz koliplar tayyorlaydi.

Ob'ektni qurilish uchun tayyorlash tadbirlari

Ob'ektni qurilish uchun tayyorlash ishlari qurilish loyixa-smeta xujjatlarini qabul kilib olish va ularni kayta ishlash bilan boshlanadi. Bunda ishcti loyixa, kushma smeta xisoblari, ish chizmalar, smetalar urganilib material-texnik resurslarga talab aniqlanadi. Ish chizmalarning

tulikligiga ishonch xosil qilingach, tashkilot bosh muxandisi imzosi bilan qurilish ishlarini boshlashga kirishiladi. Mutaxassislar tomonidan qurilish ishlab chiqarish loyihasi (PPR) tuziladi.

Bino o'rnini belgilash

Bino o'rnini belgilashga uning o'rnidagi daraxt, to'nka, butalar va o'simlik qatlamini olib tashlangandan so'ng kirishiladi. Yer qazish ishlaridan avval geodezik reja bo'yicha mazkur joyga bino yoki inshootning joylanish holati aniqlanadi.

Geodezik reja odatda gorizontal va vertikal holatga nisbatan yagona koordinata tizimida tuziladi. Tayanch joylari va nivelir tarmog'i davlat triangulyatsiya tarmog'i joylariga bog'lanadi.

BIR CHO'MICHLI EKSKAVATOR YORDAMIDA YER QAZISH.

Yer qazish ishlarining asosiy hajmini qazish ekskavatorlar yordamida bajariladi.

Ish sharoiti va yer ishlari hajmiga qarab turli tipdagi ekskavatorlar ishlatiladi. Ekskavatorlar bir cho'michli va ko'p cho'michli bo'ladi. Bir cho'michli ekskavatorlar ko'proq bino va inshoot ostiga kotlovan va transheyalar qazishda ishlatiladi. Ish uskunalarining turiga qarab bir cho'michli ekskavatorlar quyidagi turlarga bo'linadi: to'g'ri cho'michli ekskavator, teskari cho'michli ekskavator draglayn, greydyerli ekskavator va boshqalar. Qurilishda yer qazish ishlarini bajarish uchun cho'mich hajmi 0,35 dan 3 m³ gacha bo'lgan ekskavatorlar qo'llanadi.

Gruntlarni teskari cho'michli ekskavator yordamida transportga va chetga qazib tashlash metodidan foydalanamiz. Teskari cho'michli ekskavator o'zi turgan joydan past gruntни ikki usulda: oldiniga yurib (bo'ylama usul) va yon tomonidan (ko'ndalang usul) qaziydi. Bu ekskavatorlar transheya qazishda 6-7 metrgacha va kotlovan qazishda 5-6 matrgacha chuqurlikda qazib olinadi.

QUYMA BETON VA TEMIR-BETON ISHLARI TEXNOLOGIYASI

Beton sanoat, axoli, qishloq xo'jalik binolari qurilishida, xattoki xalq xo'jaligining mashinasozlik, neft, gaz sanoati tarmoqlarida ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Beton ishlarini mexanizatsiyalash, ayrim jarayonlarni avtomatlashtirish arzon beton va temir-beton konstruktsiyalarini barpo etish va ularning ishlatish sohalarini kengaytirishga imkon beradi. Beton ishlari oldindan tuzilgan ishlab chiqarish loyihasi (PPR) asosida olib boriladi. Loyihada tiklanayotgan bino va inshootlarning xususiyatlari, beton ishlari texnologiyasi, mahalliy shart-sharoitlar beton qorishmasi tarkibida boradigan fizik-ximiyaviy jarayonlarga bog'lanadi.

Yuqoridagi faktorlarga mos ravishda beton tarkibi tanlanadi, uning qotish jarayoni boshqariladi va nazoratga olinadi.

Ma'lumki, beton qorishmasi deb, ma'lum nisbatda olingan shag'al, qum, tsementni suv bilan aralashtirishdan xosil bo'lgan qorishmaga aytiladi. Beton qorishmasi qotish boshlangach o'z ma'nosini yo'qotadi. Beton qorishmasi tarkibidagi komponentlardan birining o'zgartirilishi og'ir betonni engil betonga aylantirishi, uning tavsiyasini o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu o'zgartirish ijobiy yoki salbiy rol o'ynashi mumkin.

Tashqi muxitning 18-22 °S harorati va 100% ga yaqin namlik sharoiti betonning me'yoriy qotishi uchun imkon beradi. Buning natijasida 28 sutkada beton o'z markasiga erishadi. Betonning boshlang'ich davrda qurishi yoki muzlab qolishi salbiy oqibatlariga olib keladi. Beton keyingi davrda qulay sharoitlarda ham loyihaviy ko'rsatgichlarga erisha olmaydi.

Barpo etilgan bino yoki inshootning sifati nafaqat beton qorishmasi sifatiga, balki qoliplash, armaturalash, toza to'shalgan beton qorishmasiga qarov kabi texnologik jarayonlarning amalga oshirilish saviyasiga ham bog'liq.

QOLIP O'RNATISH ISHLARI

Qolip-o'zidan keyin ma'lum shakl, o'lchamga ega konstruksiya qoldiruvchi va o'z navbatida shit va uni quvvatlab turuvchi moslamalardan (tirgak, qoziq) iborat qurilmadir.

Qoliplar materialiga qarab asosan yog'och, metall, yog'och-metalldan tayyorlanishi mumkin. Qurilishda yuqorida keltirilgan uch turdagi qoliplar keng ishlatiladi.

Ishlatilish soniga qarab bir marta yoki ko'p marta ishlatiladigan qoliplar mavjud. Inventar qoliplar-yig'ilib, ko'p maqsadlarda foydalanish imkoniyatini beruvchi elementlardan iborat. Inventar qoliplar 20-400 martagacha qayta ishlatilishi mumkin.

Qoliplar mustahkam, germetik va ustvor, quyma konstruksiyaning aniq o'lchamlarini ta'minlaydigan, oson yig'iladigan, echib olinadigan, engil, ichki sirti tekis bo'lishi zarur. Qolip va uning elementlari armatura buyumlarining o'rnatilishiga va beton qorishmasining tushalishiga xalaqit bermasligi lozim.

Beton qorishmasining qolip ichki sirtiga yopishishini oldini olish maqsadida hitning sirtiga har xil plenka xosil qiluvchi, suvni yoqtirmaydigan smolalar surtiladi. Bugungi kunda neft maxsulotlari chiqindisidan keng foydalaniladi. Bunday smola, yog'lar bo'lmasa, beton quyilishidan 1 soat oldin yog'och qoliplarga yaxshilab suv sepush tavsiya etiladi.

Lentasimon poydevorlar uchun qolip yig'ish qadami 3-4 m bo'lgan qush mayak shitlar o'rnatishdan boshlanadi. Shitlar vaqtinchalik tirgak va tortqilar bilan mahkamlanadi. Mayak shitlar bo'yicha tortqi sim tortiladi va u bo'yicha oraliq shitlar o'rnatiladi. Tekshiruvdan so'ng ular doimiy mahkamlanadi.

BETON QORISHMASINI JOYIGA TO'SHASH

Qurilish maydonlarida asosiy xajm beton korishmasi (85%dan ortiq) bad yalarda kran orqali uzatiladi. Badyalarni bo'shatish va beton korishmasi ni tekis taqsimlash qulf yuritma (privodnoy zatvor) yordamida amalga oshiriladi. Juda yuqori binolarni tiklashda badyalar kutargichlar (pod'emnik) yordamida xam qavatlarga ko'tarilishi mumkin.

Umuman olganda beton korishmasini to'shash asosni tayyorlash, beton korishmasini uzatish, qabul qilish, tarqatish va zichlash jarayonlaridan iborat. Ish boshlangunga qadar beton korishmasini uzatish, tarqatish va zichlash usullari tarqatish qalinligi yo'nalishi va muddati aniq bo'lishi kerak.

Qolipga uzatilgan beton korishmasi bir xil qalinlikdagi gorizontal qatlamlar bo'yicha bir yunalishda tarqatiladi. Gorizontal qatlamlar qalinligi zichlash jixozlarining xarakteristikalariga bog'lik. Beton qorishmasi ichki tebranish beruvchi titratgichlarda zichlanganda to'shaladigan qatlamning eng kam qalinligi titratgich ishchi organi uzunligidan 8-10 sm. kichik, beton qatlamining eng katta qalinligi titratgich ishchi organi uzunligidan 1,25 marta katta bo'lishi mumkin. Yuza bo'yicha tebranish beruvchi titratgichlardan foydalanilganda beton qorishmasi qalinligi yakka armaturalangan konstruksiyalarda 250 mm, qalin (2 qatlam) armaturalangan konstruksiyalarda - 120 mm bo'lishi zarur. Beton qorishmasini bir joydan ikkinchi joyga uloqtirish (lopatkada ko'chirish) ayrim xollardagina ruxsat etiladi.

Zichlanmagan xolatdagi beton qorishmasining tarkibida ko'p xavo bo'ladi. qattiq qorishma tarkibida 40-45%, plastik qorishmalar tarkibida 10-15% xavo bo'ladi. Beton qorishmasi zichlanganda u chiqarib yuborilgan xavolar xisobiga o'tiradi, kirishadi va natijada og'irlashadi. Titratgich ta'sirida beton qorishmasi zarralari majburiy tebranadi va erkinlashadi. Erkin zarralar og'irlik kuchi ta'sirida cho'kadi va qolipni egallaydi.

Beton sifati tekshirilganda uning xaqiqiy mustaxkamligi, muzlashga chidamliligi, suv o'tkazmaslik ko'rsatgichi aniqlanadi va tegishli xulosalar qilinadi.

G'ISHT TERISH JARAYONINING TARKIBI; G'ISHT TERUVCHINING ISH JOYINI TASHKIL ETISH

G'isht terish jaryoni bir necha ish operatsiyalaridan iborat va quyidagicha bajariladi:

- a) qorishmani yotqizish;
- b) g'ishtlarni qorishma qatlamiga qo'yish;
- v) tyerilgan qatorlarning gorizontalligini va vertikaligini tekshirish;
- g) suvalmaydigan fasadlarda gorizont va vertikal choklarni pardoqlash;

Har bir operatsiyaga muqammal asbob inventar va moslamalardan foydalanish g'isht teruvchilarning ish unumini ancha oshiradi. Asosan quyidagilar ishlatiladi:

Kelma (maxsus kurakcha) qorishmani yoyish, choklarni to'ldirishda va ortiqcha qorishmani sidirib olishda ishlatiladi. Qorishma kuragi qorishmani yashikda aralashtirib, devor ustiga solishda ishlatiladi. Pardoqlagich choklarga har xil shakl berishda ishlatiladi. Bolg'acha g'ishtni sindirish va tekislash uchun ishlatiladi. Shovun (otves) devorning vertikaligini tekshirish uchun ishlatiladi. Uroven (shayton) – devorni gorizontalligini tekshiradi. Rejacho'p (poryadovka) – devor g'ishtlari va ular orasidagi choklar o'lchamlarining buzilmasligini tekshirish uchun 3-3,5 m uzunlikdagi yog'och yoki metall reyka. Metall rejacho'p po'lat burchaklikdan ishlanadi. Rejacho'pda har 77 mm da belgi qo'yilgan. Rejacho'p vertikal holda devor burchaklariga yoki o'rtalariga qo'yilishi mumkin.

Rejacho'p ip (prichalka) – yo'g'onligi 3 mm bo'ladi. G'isht qatorini to'g'ri va gorizont bo'lishiga yordam beradi. Reja ip ushlagich (skoba)ga mahkamlanadi. G'isht teruvchining ish joyini tashkil etish. G'isht teruvchi ustalar mehnatini tashkil etishni umumlashgan (tipovoy) sxemalari (3.10-rasm) mavjud. G'isht teruvchi ustaning ish o'rni - g'isht tyeriladigan joy bilan devorbop ashyolarni o'z ichiga oladigan joy. Ish o'rning kengligi 2,5 – 2,6 keladi;

buning 0,6-0,7 metri – ish xududi (usta ishlaydigan joy);

1,0-1,6 metri ashyolar taxlanadigan joy;

0,3-0,9 metri – o'tish joyi;

devorbop ashyolar taxlanadigan joylar;

Yaxlit devorlar oldiga (3.10-rasm, a) g'ishtlar sopol bloklar taxlangan taglik qorishmali yashiklar bilan navbatma-navbat joylashtiriladi;

deraza va eshik o'rni qoldiriladigan devor g'ishtlarni terishda (3.10-rasm, b) - g'ishtlar derazalar oralig'i to'g'risiga taxlanadi, qorishma yashigi esa deraza o'rni to'g'risiga qo'yiladi;

G'isht terish va koshinlash ishlari bir yo'la bajarilganda barcha ashyolar qatorlab qo'yiladi, qatorda g'ishtlar bilan koshinlar va qorishma yashiklari navbatma-navbat joylashtirilishi lozim;

yengillashtirilgan devor g'ishtlarini terish vaqtida g'ishtlar bo'shliqlarga to'ldiriladigan ashyo solingan idishlar hamda qorishma yashiklar navbatma-navbat joylashtiriladi;

ustunlar g'ishtini terish vaqtida g'ishtlar ustaning chap tomonida va qorishma yashigi o'ng tomonida bo'lishi lozim. Ashyolar taxlanadigan joyda qorishmali yashiklarning uzun tomoni devorga ko'ndalang qo'yilishi kerak, shunda mehnat ancha tejaladi.

ORA YOPMA VA TOM YOPMA KONSTRUKTSIYALARINI MONTAJ QILISH USLUBLARI

Qurilish konstruksiyalarini quyidagilarga bog'liq holda montaj qilish uslublari: 1. Ko'tarish usuliga (yerdan uzib ko'tarish, burib sirpanish, «yiqilayotgan machta»); 2. Loyiha holatiga o'rnatish usullariga (pastdan ko'tarish, ustdan o'stirish, surish); 3. Yiriklashganlik darajasiga.

Ikki qavatli menmonxona binolari konstruksiyalarini montaj qilish yopma plitalar va boladorlarni o'rnatishni o'z ichiga oladi. Loyiha holatida o'rnatish, vaqtinchalik mahkamlash, to'g'rilash, payvandlash va tutashmalarni berkitish

Yig'ma temir beton konstruksiyalar ikki usulda montaj qilinadi:

Transportdan olish ya'ni mashinadan bevosita ish joyga olish. Bunda montaj qiluvchi elementlar montaj grafigiga muvofiq soat grafigi bo'yicha keltiriladi. Ularni bevosita transport vositalaridan olib kranlar yordamida tegishli yeraga o'rnatiladi. Transportdan olish usuli ma'lum avzalliklarga ega bo'lgani uchun kelajakda keng tarqalishi kerak.

2. Ob'ekt omboridan olib montaj qilish.

Konstruksiyalarning korxonalarda tayyorlangan detallari qurilish maydonchasiga keltiriladi va montaj kranlari ishlaydigan zonada qurilishning bosh tarhidagi tartibda joylashtiriladi.

Yig'ma temir-beton konstruksiyalarini montaj qilish quyidagi birin ketin bajriladigan jarayonlardan iborat.

Konstruksiyalarni ko'tarishga tayyorlash;

Konstruksiyalarni ilmoqlarga osish;

Konstruksiyalarni ko'tarish va loyixadagi holatda o'rntish;

Konstruksiyalarni vaqticha mahkamlash va to'g'rilash;

Konstruksiyalarni uzil kesil mahkamlash.

TOMLARDA QO'LLANILADIGAN ASHYOLAR

O'rama ashyolar quyidagi turlarga bo'linadi: ruberoid, pyergamin, tol, izol, gidroizol va boshqalar.

Tom yopishda asosan har xil markali ruberoidlar ishlatiladi. Eng samarador ashyolardan biri mastika qavatiga ega bo'lgan ruberoiddir. Bu ruberoidni tomga yopilayotgan paytda hech qanday yelimlovchi mastikalar ishlatilmaydi. Mastika qavatini har xil usulda qizdirib eritish (issiq usul) va erituvchilar (uayt-spirit), benzin yordamida yumshatish (sovuq usul) usullarida asos ustidan ruberoid yotqiziladi. Ruberoidlarni tomga yelimlashni ikki texnologik usuli bor:

1. Qavatlab yelimlash.
2. Birdaniga yelimlash.

O'rama ashyo turlari juda ko'p bo'lib, yana quyidagilarni keltirish mumkin:

Ekarbit, armobitep, monobitep, folgobitep, elastobit, xipolon (Shveytsariya), trokal (FRG). Eng arzon va qurilish texnologiyasi bo'yicha oddiy tom o'rama ashyo, ya'ni tol yoki ruberoid yordamida bajariladi. Bunday tomni faqat vaqtinchalik va yordamchi xo'jalik uylarini tomlari uchun emas, balki har qanday uy qurilishida foydalanish mumkin. Agar tom qurilishi texnologiyasiga to'liq amal qilinsa, 3-5 qavatli ruberoidli tom ruxlangan tunuqa tomlardan uzoqqa chidashi mumkin. Bunday tomning birdan-bir kamchiligi yonuvchanligidir. Ruberoidli tomni har qanday nishob uchun ham qo'llash mumkin. Ruberoid qavatining soni tomning nishobligiga bog'liq holda olinadi. Agar tomning nishobligi 45^0 va undan ortiq bo'lsa ikki qavati etarli bo'lib, $20-40^0$ da 3 qavat, $5-15^0$ da 4 qavat va tekis tomlarda 5 qavatgacha bo'lishi mumkin.

TOM ASOSINI TAYYORLASH VA UNGA QO'LLANILADIGAN ASHYOLAR

Ruberoid qattiq va tekis asosga yotqiziladi. Bunday asos tsementli qorishma yoki betondan va tekis taxtalardan iborat bo'ladi. Tsementli qorishma yoki betondan tekis tomlardagi asos tayyorlanadi. /ozirgi davrdagi uy-joy qurilishining keskin rivojlanishi balki bunday tomlarni hamma binolarda ham qo'llanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari qishloqlardagi koopyerativ uy egalari o'z uylarining ruberoidli tomlarini mustaqil ravishda ta'mir qilishlariga to'g'ri keladi.

MASTIKALAR, ULARNI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

O'rama ashyoli tomning pastki va ichki qavatlariga pyergamin yoki mayda zarrali ruberoid, yuqori qavatga esa faqat yirik donali qoplamaga ega bo'lgan ruberoidlar qo'llaniladi. Bunday tomning eng ishonchlisi ruberoidlarni mastikalar yordamida yelimlanganidir. Mastikalar sovuq va issiq holda qo'llaniladigan bo'ladi. Sovuq mastikalar

foydalanish uchun qulaydir, lekin issiq mastikalar mustahkamroq yelimlashni ta'minlaydi. Mastika tarkibiga bitum va to'ldirgichlar kiradi. To'ldirgichlarning o'zi changsimon va tolali bo'ladi. Uning birinchisiga shlak va g'isht changlari, ko'mir kuli, gips, maydalangan ohaktosh va yog'och qipig'i kiradi. Tolali to'ldirgichga esa asosan 7 va 8 navli asbest kiradi. To'ldirgichlarning o'zi changsimon turlarining aralashgan xolidagisidir: 1 qism tolali to'ldirgichga 1,5-2 qism changsimonlisidan qo'shiladi. Issiq mastika tarkibi: 8-9 qism bitum va 1-2 qism to'ldirgich. Sovuq mastika tarkibi esa: bitum-4 qism, solyarka moyi yoki uayt-spirit-4 qismdan iborat. Mastikani maxsus qozonda bitum bo'laklarini to'liq eritib, unga asta-sekin to'ldirgich qo'shib, bir xil massa holiga kelguncha aralashtirib tayyorlanadi. Issiq mastikani asosga surtganda uning harorati 160 gradusdan kam bo'lmasligi kerak. Sovuq mastikani tayyorlash uchun solyar moyi yoki uayt-spirit va to'ldirgichni alohida qozonda aralashtirib, unga ehtiyotlik bilan eritilgan bitumni quyiladi va aralashtirishni davom ettiriladi. Qaynoq bitumga erituvchini quyish aslo mumkin emas !

O'RAMA ASHYOLI TOMLARNI YOPISH JARAYONLARI. HIMOYA QATLAMINI BAJARISH

Ruberoid asosga yaxshi yelimlanishi uchun asos avval gruntlanishi (prayer) lozim. Gruntlash mastikasi tarkibida solyarka moyi yoki benzin ko'proq bo'ladi, ya'ni hajmi bo'yicha 1:3 nisbatda olinadi. Bitum erituvchi quyilayotgan paytdagi harorati 80-100⁰S atrofida bo'lishi va tinmay aralashtirib turish lozim. Gruntlangan asos yuzasi qurigandan so'ng boshqa yuqoridagi ruberoid qavatlarini yelimlanadi. Birinchi qatorning 10-15 sm qismini ikkinchi qatordagi ruberoid bilan bekitiladi. Bir qatordagi ruberoid yelimlanayotgan paytda tamom bo'lsa, uni ulash uchun 15-20 sm masofada ustidan boshqa ruberoid o'ramasi bilan bekitib ketiladi. Ikki qavatli o'rama ashyoli tomning karnizni bajarilishida fartuqni ruxlangan tunuqa tasmasidan tayyorlanadi

Ruberoidni mastikasiz yotqizish kerak bo'lsa, uni rasmdagi Ab usuli qo'llaniladi. Bunda bo'ylama choklardagi ruberoidning ustma-ust tushishi 12-15 sm bo'ladi. Ularni maxsus mixlar bilan choklar bo'ylamasiga maxkamlanadi. Oxirgi qavatdagi choklar ustidan 20-30x40 mm li kesimli reyka qo'yib mix bilan qoqiladi. Bir necha qavatli ruberoidli tomlarning choklari ustma-ust to'g'ri kelmasliklari lozim. Buning uchun birdaniga hamma qavatlarini yelimlash usulini qo'llash mumkin.

BO'YOQCHILIK ISHLARINI TASHKIL QILISH.

Bo'yoqchilik ishlari mexanzmlar va inventar moslamalardan foydalanib, potok usulida bajarilsa, yuqori mexnat unumiga erishish mumkin.

Masalan turar joy binosini pardoqlashda 25 kishidan iborat brigadani zvenolarga bo'linadi. Har qaysi zveno ma'lum ishlar topshiriladi. Bu ishlarining ketma-ket bajarishdan ya'ni zveno ketidan ikkinchi zveno yurib ishlashidan uzluksiz oqim hosil bo'ladi.

1-zveno uch kishidan iborat; bo'yoqlari yuzalarni chang va iflosliklaridan va unga gruntovka beradi.

2-zveno besh kishidan iborat; bo'yoqchilari yuzani gruntovkalaydi va suvoq yuziga sidirg'a shpaklovka beradi.

3-zveno besh kishidan iborat; duradgorlik buyumlarining hammasini ohirgi marta bo'yashga tayyorlaydi.

4-zveno to'rt kishidan iborat; devorlar yuzasini bo'yashga tayyorlaydi va yuzaga birinchi marta moyli bo'yoq qatlamini beradi.

5-zveno uch kishidan iborat; yuzani suvli aralashmalar bilan pardoqlaydi.

6-zveno besh kishidan iborat; hamma yuzalarni oxirgi marta bo'yab chiqadi. Boshqa usulda har qaysi zveno unga birlashtirilgan xonani batamom pardoqdan chiqaradi, zveno-zveno bo'lib ishlash o'ziga xos afzalliklariga ega, bunda bo'yoqchilikning shaxsiy javobgarligi ortadi.

QURILISH BO'YICHA ISH XAJMINI ANIQLASH QAYDNOMASI

№	Ish turi	Eskiz, formulalar va xisoblash	O'lchov birligi	Soni
1	Maydonni tekislash	$S = (a+20)+(b+20)$	m^2	3010,4
2	Katlavan qilish	$V_{mod.ca} = Lbh$	m^3	2468
3	Toshli asos yotqizish	$S = L(b+10) =$	m^2	840
4	Quyma poydevor	$V_{mod.ca} = Lbh$	$100 m^3$	1,76
5	Qolip o'rnatish	$S = (Lh+0.2) \times 2$	M^2	705
6	Qolipni buzish	$S = (Lh+0.2) \times 2$	M^2	705
7	Armatura o'rnatish		tona	0,236
8	Vertikal gidroximoya	$S = (Lh+0.2) \times 2$	$100 m^2$	5,88
9	Gorizontal gidroximoya	$S = Lb$	m^2	382
10	Buldozer bilan qayta ko'mish	$V_{mod.ca} = Lbx0.1$	m^3	1308
11	Qo'lda qayta ko'mish	$V_{mod.ca} = Lbx0.1$	m^3	63,2
12	Devorga g'isht terish	$V_{dev} = L_{q.b}h_{q.d} - V_{ye+o}$	M^3	784,0
13	Zinapoya o'rnatish	loyixa buyicha	dona	16
14	Bolodor o'rnatish	loyixa buyicha	dona	64
15	Ora yopma o'rnatish	loyixa buyicha	dona	132
16	Tomyopma o'rnatish	loyixa buyicha	dona	144
17	CHoklarni quyish	$L = (1+b) \times n$	Pog m	864
18	Seysma belbog' o'rnatish	$0.2 \times 0.3 L_{pre}$	$M3$	12,2

19	Temir beton ustunlarni o'rnatish	loyixa buyicha	dona	8
20	Ikki nishabli t/b balkalarni o'rnatish	loyixa buyicha	dona	4
21	Qobirg'ali tom yopma plitalarni montaj qilish	loyixa buyicha	dona	12
22	CHoklarni to'ldirish	-	m	112
23	Pardevor qurish	$F_{um} = LB$	100 m ²	6,96
24	Bug' ximoya qatlami qilish	$F_{um} = LB$	100 m ²	10,44
25	Issqlik ximoya qatlami qilish	$V_{um} = LB \cdot h$	100 m ³	1,26
26	Qum-tsementli qatlami qilish	$F_{um} = LB$	100 m ²	10,44
27	Gidroizolyatsiya 4 qatlam ruberoid	$F_{um} = LB \cdot 4$	100 m ²	41,76
28	Ximoya qatlami qilish	$F_{um} = LB$	100 m ²	10,44
